

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA TELBA OBRAZI

Xayriddinova Safiya Xusniddinovna

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy g‘azallaridagi obrazlardan biri – telba haqida mulohazalar bildirilgan. Ulug‘ shoirning mazkur obraz orqali ilgari surgan g‘oyalari hamda badiiy mahorati qisman tahlil qilingan. Telba timsolining qirralari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, adabiyot, telba, junun, obraz, "Layli va Majnun", Haq, ishq, majoz.

Ulug‘ o‘zbek shoiri – Alisher Navoiydan bizga ulkan badiiy merosi qoldi. Bu merosni o‘rganish, tadqiq qilish ulug‘ shoir yashagan davrdan bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan jarayondir. Shoir lirik merosida kuylangan har qanday mavzu bugun uchun ham dolzarb. Daho ijodkor badiiy talqin qilgan har bir obraziga o‘ziga xos ma’no yuklangan. Alisher Navoiy lirik merosida qo‘llangan mana shunday obrazlardan biri - telba.

Telba so‘ziga lug‘atlarda quyidagicha izoh berilgan: “Telba - aqldan ozgan, devona, jinni; biror narsaga, kimsaga haddan ortiq darajada berilgan savdoyi, shaydoyi. ¹ Telba – jinni, majnun, tentak, aqldan ozgan oshiq.

Telbalik – insonning murakkab psixologik jarayonlaridan biri bo‘lib, bunday insonlar xalq orasida dalli, devona, majnun, junun deb ham atalgan. Mumtoz she’riyatda telba oshiq, Haqni tanigan va hayot haqiqatlarini anglagan kishi sifatida talqin qilinadi. Ulug‘ shoirning “Layli va Majnun” dostoni bosh qahramoni Majnun ham Haq jazbasi tekkan, Haq jamolini kuchli ishq bilan sog‘ingan solik timsoli.²

Ijtimoiy hayotda ham haqiqatni qo‘rqmay gapiradigan kimsalarni telba deb atashadi. Qalami o‘tkir adibimiz O‘tkir Hoshimov ham ularni “Devonayi haqgo‘ylar”, – deb bejiz aytmagan. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida ham telbasifat Qovoq devona obrazi bo‘lib, muallif mazkur obraz orqali o‘ziga xos tasvir yaratgan. Abdulla Qodiriyning uni shunday tasvirlaydi: “Beliga katta - kichik qovoqlarni osib olib ko‘chalarni kezar edi. Qovoq devona deganimiz o‘rta yosh, siyrak soqol, qotma, kun issig‘lig‘ig‘a qarshi o‘chakishkandek boshig‘a eski telpak, egniga paxtasidan boshqasi to‘zib ketkan guppi chopon kiyib, yangi bo‘z belboqni besh-olti ayladirib bog‘lag‘an va unga besh-oltita chilim qovoqdan tortib to suvqovoq, nosqovoq va tomosha qovoqlarg‘acha osqan; qovoqlarning og‘irlig‘idan arang harakat qiladirg‘an o‘z zamonasining mashhur bir devonasi edi. Bu devona Toshkandning barchasiga ma’lum; beklardan, boylardan; qisqasi, shaharning katta-kichigidan o‘ziga ixlosmandlar ortdirg‘an va ko‘blarning tarafidan qilg‘an karomatlari rivoyat etilgan bir majnun edi. Shahardagi har kim uning oshnasi,

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли 4-жилд – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, davlat ilmiy nashriyoti, 2020 56 b

² Н Комилов .Тассавуф 2- китоб тавхид асрори. – Тошкент :Ўзбекистон.1999



Date: 17th February-2025

karomati bilan beparvo bo'lg'anlar ham uning qiziq harakatlariga va tural so'zlariga qiziqar edi. Bu choyxonadagilar ham shu keyingi sinfdan edilar".³

Qovoq devona beliga osib olgan qovoqlar davlat tepasida turgan kishilarga qiyos qilingan. Ular ham shu qovoqlardek boshlari bo'm – bo'sh, hech nasaga yaramaydi. Aqlli insonlar qo'lida qo'g'irchoq vazifasini bajarishadi. Qahramon tilidan ham "kichkinasi Xudoybachcha, suv qovog'i esa Normurod qushbegi"ligi aytilgan. Bilamizki, jinni inson aytgan gaplari uchun tovon to'lamaydi. Qovoq devona ham shu "qalqoni"dan unumli foydalanib, xalqning ichidagi gaplarni aytib yurgan.

Alisher Navoiy ijodida telba obrazining o'ziga xos talqinlarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan,

Qay pari paykarg'a dersen telba bo'lding bu sifat,
Ey pari paykar, ne qilsang qil manga bo'ldum sanga.⁴

Baytda qo'llanilgan "pari" va "telba" so'zlari bejizga bir o'rinda qo'llanmagan. Xalq orasida "pari uribdi", "jin uribdi" kabi iboralarni ko'p uchratamiz. "Pari tekkan" insonning telba bo'lishi bilan bog'liq xalqona qarash shoirning badiiy g'oyasi uchun xizmat qilgan. "Pari urgan" inson aqlini yo'qotadi, atrofdagi voqea – hodisalarga munosabati kuzatilmaydi, g'ayriodatiy harakatlari bilan atrofida g'ilardan farq qiladi.

"Pari paykar" – go'zallik timsoli. Shoir o'zining tasavvuridagi go'zal, ideal insonni pari paykar sifatlashi bilan bergan. Lirik qahramon "pari paykar"ga oshiq bo'lganidan mamnun. Oshiq "pari paykar, ne qilsa" ham maqsadidan qaytmaydi. Baytda badiiy talqin qilingan telba obrazi insoniy ishq tufayli shunday ahvolga tushgan. Shoir oshiqni telba qiyofasida berishi ham, albatta, bejiz emas. Alisher Navoiy bu bilan ishqning "insonni o'zgartirish"i mumkinligiga ishora qiladi.

Ulug' shoir Alisher Navoiy insoniy ishqni ilohiy ishq uchun ko'prik bo'lishini ko'p bora ta'kidlab o'tadi. Shuning uchun uning she'riyatida ishq keng ma'noda qo'llangan. Buning uchun ulug' shoir o'ziga xos obrazlar va tasvirlardan mahorat bilan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Meni devona qilg'an vajhdin ani pariy dermen,
Yana bir vajah bukim, tavridda kam ko'rdum odamliq.

Baytda Alisher Navoiy o'ziga xos tasvir yaratadi. Lirik qahramon nima uchun ma'shuqasini pariy deb atashining sababini bayon qiladi va bunga ikki sababni dalil qilib keltiradi. Ya'ni, oshiqning devona bo'lishiga ma'shuqaning go'zalligi sabab bo'lganligi uchun uni pariy deb atasa, ikkinchidan, "tavridda kam ko'rdum odamliq" deyish orqali unda odamlarga xos bo'lgan insonparvarlik va mehr-muhabbatning kamligiga ishora qiladi.

Telba yanglig' gah o'z holimdadurmen, goh yo'q,
Ul pariydan har kishi bir so'z rivoyat aylasa.

Telba inson vaqti - vaqti bilan vasvasaga tushib turishi tabiiy hol. Shoir mazkur baytda "Mening yorim haqida kimdir menga so'z ochsa, o'zimni yo'qotib qo'yaman",

³ A.Qodiriy. O'tkan kunlar. www.ziyouz.com – 2008.82-b



Date: 17th February-2025

demoqchi. “Layli va Majnun” dostonida ham Majnun suyukli yori Layli uchun aziz bo‘lgan barcha narsalarni qadrlaydi. Hattoki, uning ko‘chasidan o‘tgan itga ham mehribonchilik qiladi. Majnun ham Laylining oldida o‘zini yo‘qotib qo‘yib, hushidan ketadi. Allohga ishqi tushgan insonlar ham go‘yoki majnun bo‘lib qolishadi. Tun-kun Alloh yodi bilan yashab, qalblarini iymon nuri ila oziqlantirishadi.

Xulosa qilib aytganda, telba obrazi mumtoz adabiyotda juda ko‘p ma’nalarda qo‘llangan. Ushbu maqolada esa bu obraz serma’nologini baytlar tahlili orqali qisman ochib berdik. Alisher Navoiy so‘zga sehr bergan, uni turlicha jilovlantira oladigan so‘zshunosdir. Navoiy xalq bilan birga yashagan, tahlillar davomida folklordan yaxshigina xabari borligini ham bilib olamiz. “Tasavvufni bilmasdan Navoiyni anglolmaysan”, deyishadi adabiyotshunoslar. Darhaqiqat, haq so‘zni aytishdan tonmaydigan, Alloh sevgisini qalbiga jo qilgan kishilar chin junun darajasiga erishadi. Bu, albatta, psixologik telbalikdan farq qiladi. Adabiyotshunoslikda telba obrazi to‘laqonli tadqiq qilingani yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1990. –B.89
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami 20 jildlik. – T.: “Fan” nashriyoti. 1992.
3. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. –T.: Toshkent. O‘zbekiston. 2009. – B.200-201
4. O‘tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. www.ziyouz.com kutubxonasi
5. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar_ T.: Adabiyot uchqunlari. 2018
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилдли 4-жилд – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, davlat ilmiy nashriyoti. 2020. - B.56

